

## TIJORAT BANKLARI INVESTITSIYA STRATEGIYASI DOIRASIDA KREDIT FAOLIYATINI AMALGA OSHIRISH JORIY HOLATI TAHLILI

**Abduvaliyev Sanjar Abdurahmanovich**

Tashkent international university  
mustaqil izlanuvchi

E-mail: [s.abduvaliev@gmail.com](mailto:s.abduvaliev@gmail.com)

### Annotatsiya

Mazkur tadqiqotda tijorat banklarining investitsiya strategiyasi doirasida kredit faoliyatining joriy holati tahlil qilindi. Tadqiqot davomida bank aktivlari tarkibi, kredit portfeli dinamikasi hamda uzoq muddatli kreditlarning ulushi statistik ma'lumotlar asosida baholandi. Kreditlash jarayoniga ta'sir etuvchi makroiqtisodiy omillar va risk ko'rsatkichlari o'rganildi. Tahlil natijasida kredit qo'yilmalarining o'sishi iqtisodiy rivojlanishga ijobiy ta'sir ko'rsatgani aniqlandi. Shu bilan birga, muammoli aktivlar ulushining ortishi risk-menejment tizimini takomillashtirish zarurligini ko'rsatdi. Tadqiqot asosida bank kredit faoliyatini rivojlantirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

**Kalit so'zlar:** tijorat banklari, kredit portfeli, investitsiya strategiyasi, risk, moliyaviy barqarorlik, aktivlar

### Аннотация

В исследовании был проведён анализ текущего состояния кредитной деятельности коммерческих банков в рамках инвестиционной стратегии. Были изучены структура активов банков, динамика кредитного портфеля и доля долгосрочных кредитов на основе статистических данных. Также рассмотрены макроэкономические факторы и показатели риска, влияющие на кредитование. Результаты анализа показали положительное влияние роста кредитных вложений на экономическое развитие. Одновременно выявлено увеличение доли проблемных активов, что требует совершенствования системы управления рисками. На основе исследования разработаны практические рекомендации по повышению эффективности кредитной деятельности банков.

**Ключевые слова:** коммерческие банки, кредитный портфель, инвестиционная стратегия, риск, финансовая устойчивость

### Abstract

This study analyzed the current state of commercial banks' credit activities within the framework of investment strategy. The structure of bank assets, dynamics of the loan portfolio, and the share of long-term loans were evaluated based on statistical data. Macroeconomic factors and risk indicators affecting lending were also examined. The results showed that the growth of credit investments positively contributed to economic development. At the same time, an increase in non-performing assets indicated the need to improve risk management systems. Based on the findings, practical recommendations were developed to enhance the efficiency of bank credit activities.

**Keywords:** commercial banks, loan portfolio, investment strategy, risk, financial stability

## KIRISH

Globalashuv va iqtisodiy raqobat kuchayib borayotgan sharoitda tijorat banklari faoliyatida investitsiya strategiyasini samarali tashkil etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, milliy iqtisodiyotning real sektorini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish va innovatsion loyihalarni amalga oshirishda bank kreditlarining o‘rni beqiyosdir. Shu jihatdan, tijorat banklari tomonidan kredit resurslarini maqsadli yo‘naltirish va investitsiya faoliyatini kengaytirish iqtisodiy o‘sishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Mamlakatimizda bank tizimini isloh qilish, uning kapitallashuv darajasini oshirish va moliyaviy xizmatlar bozorini rivojlantirishga qaratilgan keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Natijada tijorat banklarining aktivlari 2025-yil yakuniga kelib 924,7 trln so‘mni tashkil etdi, shundan 604 trln so‘mi yoki 65 foizi kredit qo‘yilmalari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda. Bu esa bank tizimining asosiy daromad manbai sifatida kreditlash amaliyoti ustuvorligini yana bir bor tasdiqlaydi. Shu bilan birga, real sektorga ajratilgan kreditlar hajmining yildan-yilga ortib borayotgani iqtisodiyot tarmoqlarida investitsiya faolligining kuchayganligidan dalolat beradi.

Xususan, uzoq muddatli investitsion kreditlar ulushining yuqoriligi banklarning yirik investitsiya loyihalarini moliyalashtirishdagi faol ishtirokini ko‘rsatmoqda. Bu holat sanoatni modernizatsiya qilish, yangi ishlab chiqarishlarni tashkil etish va korxonalarini zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash jarayonlariga ijobiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Natijada, bank kreditlari iqtisodiyotning barqaror o‘sishini ta‘minlovchi muhim moliyaviy resurs sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Shu bilan birga, kreditlash hajmining jadal o‘sishi bank aktivlari sifati va risklar darajasiga ham muayyan ta‘sir ko‘rsatmoqda. Xususan, muammoli aktivlar ulushining ortishi, riskka tortilgan aktivlar hajmining ko‘payishi hamda uzoq muddatli kreditlar salmog‘ining yuqoriligi bank tizimida risklarni samarali boshqarish zarurligini yanada kuchaytirmoqda. Bunday sharoitda kredit portfelini diversifikatsiya qilish, investitsiya qarorlarini puxta tahlil qilish va zamonaviy risk-menejment usullarini joriy etish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Yuqoridagi holatlar tijorat banklarining investitsiya strategiyasi doirasida kredit faoliyatini chuqur tahlil qilish, uning samaradorligini baholash va risklarni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi. Shu nuqtai nazardan, mazkur maqolada tijorat banklarining kredit-investitsiya faoliyati holati tahlil qilinib, uni yanada rivojlantirish va moliyaviy barqarorlikni ta‘minlashga qaratilgan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

## ADABIYOTLARNING SHARHI

Mazkur mavzu bo‘yicha adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, tijorat banklarining investitsiya strategiyasi doirasida kredit faoliyatini tashkil etish masalasi xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan keng o‘rganilgan. Jumladan, Joseph Stiglitz va Andrew Weiss tomonidan ishlab chiqilgan kredit bozorlaridagi nomutanosib axborot nazariyasi banklar kredit siyosatida risklarni hisobga olish zarurligini asoslab beradi[7]. Frederic Mishkin tadqiqotlarida esa bank tizimi barqarorligi, pul-kredit

siyosati va investitsion kreditlash o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik chuqur tahlil qilingan[6].

A.L. Lazarenko tijorat banklarining investitsiya faoliyatini banklar tomonidan qimmatli qog'ozlarni chiqarish yoki ishlab chiqarishga investitsiya qilish, shuningdek, brokerlik va boshqa xizmatlar ko'rsatish uchun amalga oshirish orqali foyda olish, korxonalar ustidan nazorat qilish yoki boshqa foydali natijaga yerishish maqsadida yangi moliyaviy vositalarni ishlab chiqishni o'z ichiga oladigan jarayon deb hisoblaydi. Bundan tashqari, investitsiyalar uzoq vaqt davomida - kamida 3 yil davomida amalga oshirilishi kerak[10]. Zamonaviy nazariya va amaliyotda uzoq muddatli sarmoya kiritish bank faoliyatining barqarorligini ta'minlash hamda moliyaviy vositalarning bir yildan ortiq muddatda aylanishini nazarda tutadi.

I.N.Dmitrieva tijorat banklari faoliyatida investitsiyalar tushunchasini bank resurslarini joylashtirishning barcha sohalarini qamrab oluvchi hamda daromad olish maqsadida ma'lum muddatga mablag'larni joylashtirish operatsiyalari sifatida ta'riflaydi[5]. Bu holatda investitsiyalar tijorat banking barcha aktiv operatsiyalarini o'z ichiga oladi. Tijorat banklarining investitsiya faoliyati xo'jalik yurituvchi subekt (bank) nuqtai nazaridan daromadlarni oshirishga qaratilgan bo'lsa, makroiqtisodiy jihatdan esa mamlakatning iqtisodiy o'sishiga xizmat qiladi.

O.Lavrushin[11], G.Beloglazova[4] kabi iqtisodshilar bank aktivlari tarkibida investitsiya portfelining o'rni, uni boshqarish usullari va risklarni baholash mexanizmlarini tadqiq yetganlar. Ularning ishlarida bank portfelini boshqarishda likvidlik, daromadlilik va xavfsizlik o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash asosiy vazifa sifatida ko'rsatiladi.

D.Abiyev o'z ilmiy ishlarida tijorat banklarining investitsion faolligini oshirishning nazariy va amaliy jihatlarini tadqiq etgan. U asosan banklarning investitsiya resurslarini shakllantirish manbalari, ularni samarali joylashtirish mexanizmlari hamda investitsion kreditlashni rivojlantirish yo'llarini tahlil qilgan. Shuningdek, banklarning real sektorni moliyalashtirishdagi rolini kuchaytirish, investitsiya portfelini diversifikatsiya qilish va moliyaviy risklarni kamaytirish orqali investitsion faollikni oshirish mumkinligini asoslab bergan[1].

I.X.Kamilova tijorat banklari tomonidan investitsion kreditlar berish amaliyotining mavjud holatini tahlil qilgan va uni takomillashtirishning dolzarb yo'nalishlarini asoslab bergan. Xususan, u investitsion kreditlarni ajratishda loyihalarni baholash tizimi, kredit risklarini boshqarish, foiz stavkalarining ta'siri hamda uzoq muddatli moliyalashtirish manbalarini kengaytirish masalalarini o'rgangan. Shuningdek, muallif investitsion kreditlash samaradorligini oshirish uchun banklarda monitoring tizimini kuchaytirish va innovatsion moliyaviy instrumentlardan foydalanish zarurligini ta'kidlagan[8].

## **METODOLOGIYA**

Mazkur maqolani tayyorlash jarayonida olingan natijalarni chuqur tahlil qilish va umumlashtirish maqsadida induksiya va deduksiya, tizimli hamda qiyosiy tahlil, grafik tasvirlash, shuningdek, iqtisodiy-statistik usullardan foydalanildi. Ushbu metodologik yondashuv tijorat banklarining investitsiya strategiyasi doirasida kredit faoliyatini


amalga oshirish bilan bog‘liq jarayonlarni ilmiy asosda o‘rganish va xolis xulosalar ishlab chiqishga imkon yaratadi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Mamlakatimizda milliy iqtisodiyotning real sektorida faoliyat ko‘rsatuvchi korxonalar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ular faoliyatida yangi istiqbolli investitsion loyihalarni amalga oshirish borasida qator chora-tadbirlar izchillik bilan amalga oshirilmoqda. Tijorat banklari moliyaviy barqarorligi oshirish va bank xizmatlari bozoridagi raqobatlashuv jarayonining kuchayishi natijasida banklar tomonidan ko‘rsatiladigan moliyaviy xizmatlar hajmining kengaygan holda iqtisodiyot tarmoqlarida faoliyat yuritayotgan korxonalarini qo‘llab-quvvatlashda moliyaviy tashkilotlarning roli ortib bormoqda.

Banklar tomonidan amalga oshirilayotgan uzoq muddatli moliyalashtirish hajmiga mos ravishda barqaror manbalarni shakllantirish choralarning ham ko‘rib borilishi bank tizimida sof barqaror moliyalashtirish me‘yorining hisobot yili davomida barcha valyutalarda 111,8 foizdan 115,3 foizgacha oshishini ta‘minladi va ushbu ko‘rsatkich milliy valyutada 115,4 foizni hamda xorijiy valyutada 115,5 foizni tashkil etdi.

Mamlakatimizda makroiqtisodiy o‘shishning barqaror sur‘atlariga erishilishi iqtisodiyot tarmoqlarida faoliyat yurituvchi su‘bektlarning moliyaviy resurslarga bo‘lgan ehtiyojini qoplash maqsadida ularga ajratiladigan kreditlar hajmining oshishini ta‘minladi. Xususan, tijorat banklari tomonidan iqtisodiyotning real sektoriga ajratilgan kreditlar hajmi 2025-yil yakuniga ko‘ra 604 trln. so‘mni tashkil etgan holda 2023-yildagi ko‘rsatkichga nisbatan 13,3 foizga yoki 70,9 trln. so‘mga oshgan.



**1-rasm. Tijorat banklari tomonidan iqtisodiyotning real sektoriga yo‘naltirilgan kredit qo‘yilmalari qoldig‘i, trln. so‘mda<sup>1</sup>**

Tijorat banklari tomonidan berilgan kreditlarning 86 foizini investitsiyaviy maqsadlarga yo‘naltirilgan uzoq muddatli kreditlar tashkil etgan. Qayd etish joizki, mamlakatimiz tijorat banklari aktivlari 2025-yilda jami 924,7 trln. so‘mga teng bo‘lgan

<sup>1</sup> Markaziy bank ma‘lumotlari asosida muallif ishlanmasi

bo'lsa uning 604 trln. so'mi yoki 65 foizini kredit qo'yilmalari tashkil etgan. Banklar tomonidan kreditlash amaliyotini oqilona tashkil etilishi bankning barqaror daromad olishini hamda milliy iqtisodiyotning rivojlanishini moliyaviy ta'minlashning asosiy manbai sifatida xizmat qiladi. Jami kredit portfelida davlat banklarining ulushi 2023-yildagi 70,7 foizdan 67 foizgacha pasaygan bo'lsa, xususiy banklarda esa 29,3 foizdan 33 foizgacha oshish kuzatildi.

Iqtisodiyot tarmoqlarining moliyaviy resurslarga bo'lgan ehtiyojini ta'minlash maqsadida banklar tomonidan kredit resurslarining keng ko'lamda yo'naltirilishi kredit qo'yilmalar hajmini va uning YaIMdagi salmog'ining ortishiga sabab bo'lmoqda, bu holat esa mamlakatda yaratilgan YaIM hajmining ham oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu esa sanoat ishlab chiqarishi hajmining ortishiga hamda makroiqtisodiy o'sish sur'atlarining yanada barqarorlashishiga qulay zamin yaratmoqda.

Milliy iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiya qilish, sanoat tarmog'ida yangi ishlab chiqarishlarni tashkil etish, korxonalarni zamonaviy texnologiyalar bilan ta'minlash hamda samaradorligi yuqori bo'lgan investitsiya loyihalarni amalga oshirish borasidagi chora-tadbirlar korxonalarining moliyaviy resurslarga bo'lgan ehtiyojini yanada ortishiga sabab bo'lmoqda.

Iqtisodiyotning kreditlarga bo'lgan o'sib borayotgan talabini qondirib borishga sharoit yaratish maqsadida va tashqi manbalardan resurslar jalb qilishdagi noaniqliklar tijorat banklari tomonidan ichki moliyalashtirish manbalarga bo'lgan yehtiyojlarni kuchaytirmoqda. Xususan, 2025-yilda banklarning jami majburiyatlari 789,4 trln. so'mga yetib, 2024-yilga nisbatan 21 foizga yoki 135 trln. so'mga oshdi.

Iqtisodiyotga ajratilgan kredit qo'yilmalari qoldig'i qishloq xo'jaligida 21 foizga oshib, 61 trln so'mga, savdo va umumiy ovqatlanish sohasida 14 foizga oshib, 43,5 trln so'mga, qurilish sohasida 46 foizga oshib, 18,8 trln so'mga hamda moddiy va texnik ta'minotni rivojlantirish sohasida 13 foizga oshib, 4,7 trln so'mga yetdi.

Tijorat banklari tomonidan ajratilgan kreditlar hajmida uzoq muddatli kreditlarning ulushi yuqoriligi banklarning investitsiya loyihalarini moliyalashtirishdagi ishtirokining faollashib borayotganligini ko'rsatadi.

Tadqiqot ishining yuqoridagi paragrafida ko'rib chiqqanimizdek, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan tijorat banklari resurs bazasini mustahkamlashga qaratilgan ta'sirchan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, muddatli depozitlari uchun majburiy zaxira me'yorlarini pasaytirildi va ularni tabaqalashtirish tartibini joriy etildi. Bu chora tijorat banklariga o'z resurs bazasini mustahkamlash imkonini yaratdi. Natijada kredit resurslarining kengayishi va banklar tomonidan investitsion kreditlar hajmini ko'paytirish imkoniyati yuzaga keldi.

2018-2024 yillar davomida uzoq muddatli kreditlar uchun o'rtacha yillik tortilgan foiz stavkalari sezilarli darajada o'sib, 9,5 foizdan 24,4 foizga yetdi. Bunday tendensiya natijasida korxonalarining investitsiya loyihalarini bank kreditlari orqali moliyalashtirish xarajatlari ortib, ular uchun moliyaviy resurslardan foydalanish nisbatan qimmatlashgani kuzatilmoqda.

Mamlakatdagi inflyatsiya darajasi tijorat banklari tomonidan ajratiladigan investitsion kreditlar hajmiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Agar inflyatsiya yuqori sur'atda kechsa, kreditlar bo'yicha foiz stavkalari ortib boradi va bu holat investitsiya faoliyatini sekinlashtirishi mumkin. Natijada banklar uzoq muddatli loyihalarni moliyalashtirish o'rniga tez foyda keltiradigan spekulyativ operatsiyalarga ko'proq e'tibor qarata boshlaydilar.

Inflyatsiya darajasining yuqoriligi banklar tomonidan belgilanadigan real foiz stavkalarining pasayishiga olib keladi va bu holat investitsiya jarayonlarini rag'batlantirmaydi. Shu bilan birga, tijorat banklari kredit qo'yilmalarining barqaror o'sish sur'atida uzoq muddatli kreditlar bo'yicha foiz stavkalarida keskin o'zgarishlar kuzatilmagani, shuningdek, majburiy zaxira me'yorlarining o'zgarishi va tabaqalashtirilishi muhim omil sifatida qayd etiladi.

Tijorat banklari investitsion kreditlar hajmiga ta'sir etuvchi asosiy omillar qatorida hududlarning iqtisodiy rivojlanish darajasi, moliyaviy resurslarning tannarxi va davlat tomonidan bank faoliyati uchun yaratilgan imtiyozlarni alohida ta'kidlash zarur.

Shu bilan birga, mamlakatimizda moliya bozori hali yetarli darajada rivojlanmagani sababli tijorat banklari investitsiyalarni moliyalashtirishda asosan uzoq muddatli kreditlarga tayanadi. Bir yil va undan ortiq muddatga berilgan bunday kreditlar aholi va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning investitsiya xarajatlarini ta'minlashga yo'naltiriladi.

### 1-jadval.

#### Tijorat banklari investitsiya kreditlari hajmi va daromadlilik darajasi<sup>1</sup>

Ko'rsatkichlar	2021-yil	2022-yil	2023-yil	2024-yil	2025-yil
Uzoq muddatli kreditlar, mlrd. so'm	291399	338909	410 210	457 109	531 796
Uzoq muddatli kreditlarning jami kreditlar hajmidagi ulushi, foizda	89,7	86,9	87,0	86,0	88,0
Milliy valyutadagi uzoq muddatli kreditlarning foizi	18,9	22,3	23,1	23,4	23,3
Xorijiy valyutadagi uzoq muddatli kreditlarning foizi	5,9	6,8	8,9	9,9	10,0

1-jadval ma'lumotlariga muvofiq, 2021-2025 yillar mobaynida tijorat banklari tomonidan ajratilgan uzoq muddatli kreditlar hajmi 291,4 trln. so'mdan 531,8 trln. so'mgacha o'sib, deyarli ikki barobarga ko'paygani kuzatilmoqda. Shu bilan birga, uzoq muddatli kreditlarning umumiy kreditlar tarkibidagi ulushi 2021-yilda 89,7 foiz atrofida bo'lgan bo'lsa, keyingi yillarda muayyan pasayish qayd etilgan va 2024-yilga kelib 86 foizgacha tushgan. 2025-yilda ushbu ko'rsatkich yana o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan.

Mijozlarga milliy valyutada ajratilgan uzoq muddatli kreditlar foiz stavkasi 2021-yilda o'rtacha 18,9 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilda bu ko'rsatkich 23,3 foizga yetgan. Iqtisodiyotda kreditlarga bo'lgan talabning yuqori saqlanib qolishi fonida

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

jismoniy shaxslarning milliy valyutadagi kreditlari bo'yicha o'rtacha foiz stavkasi yil yakunida 12 oylik darajasidan mos ravishda 0,1 foiz bandga kamayib 23,3 foiz doirasida shakllandi.

Xorijiy valyutadagi uzoq muddatli kreditlarning foiz stavkasi ham barqaror o'sish traektoriyasini namoyon etgan: 2021-yilda 5,9 foiz bo'lgan ko'rsatkich 2025-yilda 10 foizga yetgan.

2025-yil yakunida tijorat banklari kredit portfelida uzoq muddatli kreditlarning ulushi 88 foizni tashkil etgan. Bu holat iqtisodiyotning real sektori uzoq muddatli moliyalashtirishga katta ehtiyojga ega ekanligini ko'rsatadi. Shuningdek, qayta moliyalashtirish stavkasi va inflyatsiya darajasi kabi omillar ham kreditlar samaradorligiga ta'sir etgan. Umuman olganda, jadvaldagi raqamlar mamlakatimiz tijorat banklari investitsiya faoliyatining yildan-yilga rivojlanayotganini tasdiqlaydi.

Mamlakatimizdagi tijorat banklari tomonidan iqtisodiyotga yo'naltirilayotgan kredit qo'yilmalari tarkibidagi sifat o'zgarishlarni baholashda kreditlarning muddat bo'yicha taqsimlanishini tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Tijorat banklari kredit portfelining salmoqli qismi - 88 foizi uzoq muddatli kreditlar hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Bu holat, avvalo, banklarning kreditlash sohasidagi imkoniyatlari va faoliyati izchil rivojlanayotganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, investitsion loyihalarni moliyalashtirish jarayonida banklarning ishtiroki kengayib borayotganini ham ko'rsatadi. Bundan tashqari, aholi va tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan investitsiya ehtiyojlarini qondirish maqsadida tijorat banklari kreditlariga bo'lgan talab ortib borayotganini anglatadi.

Tijorat banklari tomonidan ajratiladigan investitsion kreditlar hajmiga bir qator makroiqtisodiy va moliyaviy omillar ta'sir ko'rsatadi. Jumladan, Markaziy bankning qayta moliyalashtirish stavkasi, depozit foizlariga nisbatan belgilangan majburiy talablar, valyuta kursining o'zgarishi, uzoq muddatli kreditlar bo'yicha foiz stavkalari hamda inflyatsiya darajasi shular jumlasidandir.

Quyidagi keltirilgan 2-jadval ma'lumotlari tijorat banklari kredit qo'yimlarining iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha tarkibida yuqori ulushni aynan sanoat tarmoqlariga egallaganligini va bu tendensiya qator yillar davomida saqlanib qolganligini ko'rsatmoqda.

## 2-jadval.

### Tijorat banklari kredit qo'yimlarining iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha taqsimlanishi (foizda)<sup>1</sup>

Ko'rsatkichlar nomi	2021-yil	2022-yil	2023-yil	2024-yil	2025-yil
Sanoat	36,0	32,5	30	29	24
Qishloq xo'jaligi	10,7	10,8	10	9	10
Qurilish sohasi	2,8	2,7	3	2	3
Savdo va umumiy xizmat	8,4	7,4	7	7	7
Transport va kommunikatsiya	8,8	7,6	7	6	6

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

Ko'rsatkichlar nomi	2021-yil	2022-yil	2023-yil	2024-yil	2025-yil
Moddiy va texnik ta'minotni rivojlantirish	1,2	1,0	0,9	0,8	0,8
Uy-joy kommunal xizmati	0,7	0,5	0,5	0,4	0,2
Jismoniy shaxslar	21,3	25,9	32	33	36
Boshqa sohalar	10,0	11,7	11	12	13
Jami	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0

Tijorat banklarining iqtisodiyot tarmoqlariga kredit qo'yilmalari tarkibini ko'radigan bo'lsak, bunda banklar tomonidan sanoatga ajratilgan kreditlar salmog'i 2025-yilda 24 foizni tashkil etgan, bu holat, milliy iqtisodiyotda faoliyat ko'rsatuvchi korxonalarining moliyaviy resurslarga bo'lgan ehtiyojini ta'minlash, ularda modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta jihozlash ishlarini faol amalga oshirish hamda yangi investitsion loyihalarni joriy etishga qaratilgan chora-tadbirlarning ijobiy ta'siri orqali yuzaga kelmoqda.

Yirik davlat banklari tomonidan kreditlash manbaini shakllantirishda asosan tashqi manbalarga tayanilishi bank tizimida dollarlashuv darajasini oshirishi bilan bir qatorda ularning tashqi omillarga ta'sirchanlik xavfini ham oshirmoqda. Amaliyotdan ma'lumki, banklar tomonidan iqtisodiyot tarmoqlariga ajratilgan kreditlar hajmining va jami kredit portfelida uzoq muddatli kreditlar salmog'ining oshib borish tendensiyasiga egaligi o'zgaruvchan bozor kon'yunkturasi sharoitlarida moliyaviy risklarni yuzaga kelishiga sabab bo'lishi mumkin.

Bank tizimida uzoq muddatli resurslarni ajratish bilan bog'liq holda yuzaga keladigan risklarni muayyan darajada kamaytirish yoki oldini olish, uzoq muddatli resurslarga ehtiyoji mavjud sanoat korxonalari va banklarning o'zaro integratsiyalashuvi orqali, shuningdek investitsion loyihalarni ishlab chiqish va ularni amalga oshirish jarayonida tijorat banklarining ishtirokini faollashtirish asosida ta'minlanadi. Chunki, tijorat bankining guruh doirasida moliyaviy menejmentni tashkil etishi, korxonalar moliyaviy holatini tahlil etib borishi hamda pul oqimlarini nazorat qilishi risklarni oldini olishga qulay sharoit yaratadi[12].

Yuqoridagi ma'lumotlar asosida qayd etish lozimki, bank tizimi moliyaviy barqarorligini ta'minlash va shunga mos ravishda milliy iqtisodiyot tarmoqlarida barqaror o'sish sur'atlariga erishish hamda moliyaviy risklarni oldini olishning samarali yo'llaridan biri bo'lib tijorat banklarining investitsion faoliyatini takomillashtirish hisoblanadi.

Amalga oshirilgan tahlil natijalari asosida qayd etish mumkinki, istiqbolda bank tizimining moliyaviy barqarorligini va raqobatbardoshligini oshirishda banklar o'z faoliyatida daromadlarni diversifikatsiyalash va ko'rsatiladigan xizmatlar ko'lamini kengaytirish, shuningdek sanoat korxonalari bilan investitsion munosabatlarni rivojlantirish kabi masalalarga ustuvorlik berishi lozim. Mazkur yo'nalishda moliyaviy barqarorlikni ta'minlash jarayonida bank faoliyatining diversifikatsiyalashuvi orqali banklar daromadining oshishiga, investitsion salohiyatning yuksalishiga va kredit risklarini minimallashtirishga imkon yaratadi.

Tijorat banklari aktivlarining asosiy qismini 2025 yakuniga ko‘ra 65 foizini kredit qo‘yilmalari tashkil etadi. Tijorat banklarida kreditlash amaliyotini to‘g‘ri tashkil etilishi bir tomondan, bankning barqaror daromad olishini ta‘minlasa, ikkinchi tomondan, bank kreditlari mamlakat iqtisodiy rivojlanishining moliyaviy manbasi bo‘lib, makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarning o‘sib borishini ta‘minlaydi. Bu borada mamlakatda yaratilayotgan YaIMda bank kreditlarining ulushining so‘nggi yillar oralig‘ida o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lganligini ko‘rish mumkin.

Kredit qo‘yilmalar salmog‘ining o‘sib borishi mamlakatimizda yaratilayotgan YaIMning ham miqdorining o‘sib borishini ta‘minlagan. Bu, o‘z navbatida, mamlakatda makroiqtisodiy barqarorlikni ta‘minlash, sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiya qilish, yangi ishlab chiqarishlarni tashkil etish, korxonalarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash hamda istiqbolli investitsiya loyihalarini amalga oshirish borasidagi faollik bilan olib borilayotgan islohotlar natijasida natijasida real sektorda faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalarining moliyaviy resurslarga bo‘lgan ehtiyoji tobora ortib bormoqda.

Aktiv operatsiyalardan iqtisodiy riskning nisbiy o‘lchamini ifodalovchi asosiy tahliliy ko‘rsatkich bo‘lib moliyaviy tizimda yalpi muammoli aktivlarning (YaMA) baholash darajasi hisoblanadi. Muammoli aktivlarga muddati o‘tgan ssudalar, sud aralashuvi bilan o‘zlashtirilishi ko‘zda tutilgan ssudalar, garovdagi aktivlar, shuningdek maxsus kompaniyalarga boshqarishga berilgan ishlamaydigan aktivlar kiradi. Yalpi muammoli aktivlarning o‘lchami shuningdek, mazkur bank tizimida oldin yuzaga kelgan murakkabliklar bilan bog‘liq muammoli aktivlar hajmi va xarajatlarni ifodalaydi.

Ushbu ko‘rsatkich foiz ko‘rinishida ifodalangan holda quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$Yalpi\ muammoli\ aktivlar\ (YaMA) = \frac{(ShA+UA)*100}{JKP} \quad (1)$$

Bunda,

ShA - shubhali aktivlar;

UA - umidsiz aktivlar;

JKP - jami kredit portfeli.

Riskni hisobga olgan holda tortilgan banklar aktivlarining umumiy hajmi 2025-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, 2021-yilga nisbatan 2010-yilga nisbatan 1,2 foizli punktga oshgan. Tijorat banklari aktivlari tarkibida sifatiga ko‘ra «shubhali» va «umidsiz» deb tasniflanuvchi aktivlarning hajmi esa 2025-yilda 2021-yilga nisbatan 2,5 barobarga oshgan holda 19,2 trln. so‘mni tashkil etgan. Bank tizimi aktivlari tarkibi va sifati hamda kredit portfeli hajmiga oid ma‘lumotlar tahlili natijasida 2023-yilda yalpi muammoli aktivlar ko‘rsatkichi tahlil davrida eng past darajani qayd etgan. Keyingi yillarda ushbu ko‘rsatkich sezilarli o‘sishga erishib, 2025-yilga kelib qariyb 1,6 foizga oshganligi kuzatish mumkin. Mazkur holat, muammoli aktivlar salmog‘ining va bank tizimida kredit riskining oshganligidan dalolat beradi.

**3-jadval.**
**Bank tizimida riskka tortilgan aktivlar ulushining o'zgarishi<sup>1</sup>**

Yillar	Kreditlar hajmi, mlrd. so'm	Shubhali va umidsiz aktivlar hajmi	Riskka tortilgan aktivlar ulushi, foizda
2021	276975	7689	2,8
2022	326386	8454	2,6
2023	390049	7819	2,0
2024	471406	12391	2,6
2025	533121	19233	3,6

Yalpi muammo aktivlarning baholanuvchi darajasi tasdiqlashicha, iqtisodiyot tarmoqlaridagi korxonalar va aholini kreditlash hajmining keskin oshishi, kapitallashuv darajasi o'sishining ortda qolishi hisobidan riskli aktivlarning haddan ziyod ortishi pirovardida bank tizimi likvidlilik darajasini pasaytiradi[9].

Yalpi muammoli aktivlarning yuqori darajasi birinchi navbatda iqtisodiyotning tuzilmaviy jihatdan kuchsizligi ayniqsa xom-ashyo resurslarini qayta ishlash va ularning eksporti bilan bog'liq tarmoqlarda ish faolligining pastligi, hududlarni rivojlantirishdagi tengsizlik, korxonalar o'rtasidagi xo'jalik aloqalarning beqarorligi hamda korxonalariga zamonaviy texnika va texnologiyalarni, yangi innovatsiyalarni joriy etishdagi muammolar orqali izohlanadi.

Mustaqillik koeffitsienti moliyaviy holat barqarorligini tavsiflovchi muhim ko'rsatkichlardan biri bo'lib hisoblanadi. Mazkur ko'rsatkich iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish uchun jamlangan jami mablag'lar hajmida o'z mablag'lari salmog'ini ifodalaydi.

$$K_m = \frac{K}{A} \quad (2)$$

Bu yerda,

$K_m$  - mustaqillik koeffitsienti;

$K$  - jami kapital;

$A$  - jami aktivlar.

Ta'kidlash joizki, kapitalning ulushi qanchalik yuqori bo'lsa bozor iqtisodiyotida yuzaga keladigan kutilmagan vaziyatlardan himoyalaniish imkoniyati shunchalik ko'p bo'ladi. Mustaqillik koeffitsientining oshishi bozor sub'ektining moliyaviy mustaqilligi oshganligidan, kelgusi davrlarda moliyaviy qiyinchiliklarda riskning pasayishidan dalolat beradi.

Bank tizimida kapital yetarliligini baholash uchun o'z mablag'lari bilan ta'minlanganlik koeffitsientlarini aniqlash lozim. Jami kredit portfelini bank tizimining kapitali bilan qoplash jami kapitalni kredit portfeli qiymatiga nisbati ko'rinishida hisoblanadi[2]:

$$K_t = \frac{K}{K_{rP}} \quad (3)$$

Bu yerda,

$K_t$  - kredit portfelini o'z kapitali bilan qoplash koeffitsienti;

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

K - jami kapital;  
KrP - kredit portfeli.

Shubhali kreditlarni qoplash koeffitsienti kapitalni shubhali kreditlarga nisbati orqali aniqlanadi[3]:

$$K_{sh.k} = \frac{K}{Shub.Kr} \quad (4)$$

Bu yerda,

$K_{sh.k}$ - shubhali kreditlarni kapital bilan qoplash koeffitsienti;

K - jami kapital;

Shub.Kr - shubhali kreditlar.

Bank tizimining kapital va aktivlar o'lchami hamda tarkibiga oid statistik ko'rsatkichlariga muvofiq yuqoridagi formulalar asosida kapital yetarliligi ko'rsatkichlarini hisoblash mumkin.

**4-jadval.**

**Bank tizimida kapital yetarliligiga oid koeffitsientlarning o'zgarishi<sup>1</sup>**

Ko'rsatkichlar	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil	2024-yil
<b>Mustaqillik koeffitsienti</b>	0,16	0,16	0,14	0,15	0,15
<b>Kredit portfelini o'z kapitali bilan qoplash koeffitsienti</b>	0,21	0,22	0,20	0,21	0,22
<b>Shubhali kreditlarni o'z kapitali bilan qoplash koeffitsienti</b>	1009	246	474	531	387

2025-yil 1-yanvar holatiga ko'ra bank tizimida umumiy kapitalining jami aktivlarga nisbati 0,15 ni, kapitalning kreditlarga nisbati esa 0,22 ni tashkil etgan. Shubhali kreditlarni kapital bilan qoplash koeffitsienti 387 ni tashkil etgan. Mustaqillik koeffitsienti va kreditlarni qoplash koeffitsientining oshishi kuzatilgan bo'lsa ham ularni talab darajasida deb baholash mumkin. Shubhali kreditlarni o'z kapitali bilan qoplash koeffitsienti 2024-yil yakuniga ko'ra oldingi yilga nisbatan sezilarli darajada kamaygan bo'lib bu holat tijorat banklari kredit portfeli tarkibida shubhali kreditlar hajmining oshganligi bilan izohlanadi. Bu holatda tijorat banklari tomonidan uzoq muddatli investitsion maqsadlarda ajratilgan kreditlar yuzasidan monitoringni kuchaytirish va mablag'larni kreditlashdan tashqari boshqa yuqori daromadli investitsiya ob'ektlariga yo'naltirish maqsadga muvofiq.

**XULOSA VA TAKLIFLAR**

Olib borilgan tahlillar natijasida shuni ta'kidlash mumkinki, tijorat banklarining investitsiya strategiyasi doirasida kredit faoliyatini samarali tashkil etish mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sishini ta'minlovchi asosiy moliyaviy mexanizmlardan biri hisoblanadi. Bank tizimida kredit qo'yilmalarining yuqori ulushga ega bo'lishi real sektor korxonalarining investitsiya resurslariga bo'lgan talabining ortib borayotgani bilan izohlanadi.

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, kredit portfeli tarkibida muammoli aktivlar (shubhali va umidsiz kreditlar) ulushining ortishi bank tizimida risklarni boshqarish tizimi samaradorligini yanada takomillashtirish zarurligini yuzaga chiqaradi. Xususan, iqtisodiyot tarmoqlarining notekis rivojlanishi, ayrim sektorlarda ishlab chiqarish samaradorligining pastligi, korxonalarining moliyaviy barqarorligi yetarli emasligi hamda investitsiya loyihalarining qaytarish qobiliyatini baholashdagi kamchiliklar kredit risklarining ortishiga sabab bo'luvchi asosiy omillar sifatida namoyon bo'lmoqda.

Banklarning kapitallashuv darajasi kredit portfeli o'sishiga nisbatan sustroq rivojlanayotgani bank tizimi barqarorligiga nisbatan bosimni kuchaytirishi mumkin. Bu holat, ayniqsa, iqtisodiy siklning o'zgaruvchan bosqichlarida likvidlik muammolarining yuzaga kelishi ehtimolini oshiradi. Shu nuqtai nazardan, kredit faoliyatini kengaytirish bilan bir qatorda kapital yetarliligi, zaxiralar siyosati va riskni baholash mexanizmlarini mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, tijorat banklarining investitsion kreditlash amaliyotida zamonaviy risk-menejment usullarini joriy etish, kredit portfelini tarmoqlar bo'yicha diversifikatsiya qilish hamda investitsiya loyihalarini baholashning sifat mezonlarini kuchaytirish bank aktivlari sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, raqamli bank xizmatlarini rivojlantirish va kredit monitoringi tizimini avtomatlashtirish kredit jarayonlarining shaffofligi va samaradorligini oshiradi.

Tijorat banklarining investitsiya strategiyasi doirasida kredit faoliyatini takomillashtirish iqtisodiyotning real sektoriga yo'naltirilgan moliyaviy resurslar samaradorligini oshirish, bank tizimi barqarorligini ta'minlash hamda mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilashda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi.

Yuqorida amalga oshirilgan tadqiqotlar asosida shuni ta'kidlash lozimki, bank tizimining likvidligini oshirish maqsadida tijorat banklarining milliy fond bozoridagi ishtirokini faollashtirish zarur. Bu holat, likvid investitsion instrumentlardan foydalanish imkoniyatini oshirgan holda banklarning likvidligini boshqarishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu boisdan banklarning fond bozoridagi ishtirokini kengaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur. Tijorat banklarining fond bozoridagi ishtirokini faollashtirish hamda ularning investitsion faolligini oshirish maqsadida banklar tomonidan likvidli va barqaror qiymatga ega bo'lgan qimmatli qog'ozlarni muomalaga chiqarish va ularni fond bozorida joylashtirish, shuningdek banklarning iqtisodiyot tarmoqlaridagi korxonalar qimmatli qog'ozlariga qo'yilmalar hajmini oshirish lozim. Ushbu holat, moliya va sanoat tarmoqlarining o'zaro integratsiyasini kuchaytirish bilan birgalikda bank tizimi hamda real sektor korxonalarini moliyaviy barqarorligini oshirish hamda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan moliyaviy risklarni samarali boshqarishga xizmat qiladi. Shu boisdan tadqiqot ishimizning keyingi paragrafini aynan tijorat banklarining fond bozoridagi ishtirokini o'rganishga bag'ishlashni maqsadga muvofiq deb topdik.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abiyev D. Tijorat banklarining investitsion faolligini oshirish yo'llari. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori dissertatsiyasi avtoreferati. -T: TMI, 2024. - 58 b.
2. Авдашева С., Дементьев В. Акционерные и неимущественные механизмы интеграции в российских бизнес-группах // Российский экономический журнал. 2000. № 1. С. 13-27.
3. Артеменко В.Г. Финансовый анализ: Учеб. Пособие / В.Г. Артеменко, М.В. Беллендир. - М.:ДИС, 1997. - 123 с.
4. Банковское дело: теория и практика: учебник для вузов / редакторы: Г. Н. Белоглазова, Л. П. Кроливецкая. - 2-е изд. -Санкт-Петербург: Питер, 2010. - 400 с.
5. Дмитриева, И. Н. Сущность инвестиционной деятельности коммерческого банка /И.Н. Дмитриева // Молодой ученый. - 2012. - №8. - С. 94-96.
6. Frederick S. Mishkin. The economics of money, banking and financial markets. - Boston: Pearson, Eleventh Edition, 2016. - 728 p.
7. Joseph Stiglitz, Andrew Weiss - "Credit Rationing in Markets with Imperfect Information", The American Economic Review, 1981 йил, 71-жилд, 3-сон, 393-410-бетлар.
8. Kamilova I.X. Tijorat banklarining investitsion kreditlar berish amaliyotini takomillashtirishning dolzarb masalalari. "Xalqaro moliya va hisob" ilmiy elektron jurnali. № 6, dekabr, 2019-yil.
9. Котыхов М. П., Шевченко И. Б. Построение ликвидной позиции коммерческого банка // Финансы и кредит. - 2002. - №3.
10. Лазаренко, А. Л. Управление инвестиционной деятельностью коммерческих банков: основные направления / А.Л. Лазаренко // Вестник ОрелГАУ. - 2010 - №1 (10). - С. 50-52.
11. Лаврушин О. И. Банковское дело. - Москва: КНОРУС, 2016. - 800 с.
12. Kitanov Y. Portfolio investment risks: typology and mitigation// Journal of International Scientific Publications// Volume 10. 2016. 332-338 p.



# Marketing

*ilmiy, amaliy va ommabop jurnali*

**Muharrir:**

**Ingliz tili muharriri:**

**Rus tili muharriri:**

**Musahhih:**

**Sahifalovchi va dizaynerlar:**

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

**2026-yil, aprel, 4-son**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

[info@marketingjournal.uz](mailto:info@marketingjournal.uz)

Bot:

[@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. ГОСТ 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**